



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi



TADQIQOTLAR



ILM-FAN



TEKNOLOGIYALAR

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

2026



Google Scholar



zenodo

OpenAIRE

Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 4-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro
ilmiy bazalarda indexlanadi



www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

URGANCH SHAHRI URBANONIMLARINING GRAMMATIK TARKIBI



Murodbek MATNAZAROV
Urganch innovatsion universiteti
“O‘zbek va xorijiy filologiya”
kafedrasida dotsent v-b,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
[orcid 0009-0000-9625-044X](https://orcid.org/0009-0000-9625-044X)

E-mail: matnazarov.murodbek@bk.ru

Annotatsiya: ushbu maqolada Urganch shahridagi urbanonimlarning grammatik tarkibi masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: urbanonim, oronim, fitonim, gidronim, antroponim, oykonim, mikrotoponim.

Аннотация: в данной статье Грамматический состав урбанонимов требует их анализа материалов урбанонимии города Ургенча.

Ключевые слова: ергоним, урбаноним, ороним, фитоним, гидроним, антропоним, ойконим, микропоним.

Annotation: This article discusses the development of toponymy in Uzbek linguistics, the naming features of urbanonyms the relationship of regional urbanonyms.

Keywords: urbanonym, oronym, phytonym, hydronym, anthroponym, oykonim, microponym.

O‘zbek tili urbanonimiyasi tizimi nisbatan murakkab grammatik tuzilishga ega. Urbanonimlarning ba‘zilari grammatik tuzilishiga ko‘ra o‘z apellyativiga teng kelsa, ba‘zilari farqli shakllarga ega bo‘ladi. Bu, ayniqsa, urbanonim indikatorli nomlar tuzilishida aniq ko‘rinadi. Urbanonimlar tarkibida shunday so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi morfemalar mavjudki, ular urbanonimga daxldor bo‘lishi yoki bo‘lmasligi ham mumkin. Bular mohiyatan funksional va nofunksional morfemalardir. Bordi-yu, so‘z yasovchi morfema atoqli ot yasayotgan bo‘lsa, (Mevazor, Ma‘rifatchi) funksional hisoblanadi. Bordi-yu, so‘z yasovchi morfema atoqli otni emas, unga negizlik rolini o‘ynayotgan apellyativni yasagan bo‘lsa, u nofunksional hisoblanadi. Chunki qo‘shimcha urbanonim tarkibida qotgan derivativ shakl holatidadir. Masalan, *Paxtakor*, *Tinchlik* urbanonimlari tarkibidagi

-kor va -lik morfemalari urbanonim uchun emas, bu nomlarga negiz bo'lgan turdosh otlar uchun taalluqlidir. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, urbanonimlarning morfologik tarkibida urbanonimga mohiyatan daxldor yoki nodaxldor unsurlar mavjud bo'ladi va bu atoqli ot tuzilishini murakkablashtiradi. Bundan tashqari urbanonimlar tizimida apellyativ leksika tuzilishiga har doim ham mos kelavermaydigan yasama modellar mavjuddir. Masalan, qo'shma urbanonimlarning modellari. Bu kabi nomlarda doimo takror uchrab turuvchi, universal komponentlarning mavjud bo'lishi yoki asosiy va ikkinchi darajali komponentlarning roli nomning xarakteriga qarab o'zgarib turishi urbanonimlarning morfologik tuzilishini murakkablashtiradi. Chunonchi, O'rtaovul, Yuqoribog' kabi nomlarda asosiy komponentni belgilash oson kechmaydi. Chunki *o'rta*, *yuqori* leksemalarning o'zi alohida urbanonim bo'lolmaydi. Shuningdek, *ovul*, *bog'* leksemalari ham alohida olinganda atoqli ot emas. Demak, bunday nomlarning komponentlari ham ma'no, ham grammatik jihatdan zich bog'langan holatdadir.

Xullas, urbanonimlarning bunday murakkab grammatik tuzilmaga egaligi ularni ma'lum guruhlariga ajratgan holda tahlil qilishni talab qiladi. Bular o'zbek nomshunosligida keyingi paytda faol qo'llanilayotgan: 1. Apellyativ asosli nomlar. 2. Formantli nomlar. 3. Indikatorli nomlar guruhlaridir. Urbanonimlarning ushbu guruhlarini quyida Urganch shahri urbanonimiyasi materiallari asosida tahlil qilamiz.

1) apellyativ asosli nomlar. Apellyativ asosli urbanonimlar termini ostida apellyativlariga grammatik tuzilishiga ko'ra mos keluvchi nomlar tushuniladi. Apellyativ asosli nomlar tub, qo'shimcha qismlarga ajralmaydigan, monolit yasama urbanonimlardir. Ular hozir o'zbek tilining so'z yasash normasi nuqtayi nazaridan baholanadi. Nomlar tarkibidagi negizlar tarixan yasama bo'lishi va bu etimologik tahlillar vositasida aniqlanishi mumkin. Mana shu nuqtayi nazardan aslida yasama yoki qo'shma tuzilmaga ega bo'lgan bir qator nomlar urbanonimiya sathida morfemaviy tarkibga ajralmaydigan tub yoki sodda leksika deb tushuniladi. Bular quyidagilar: 1. Yasama bo'lgan apellyativlar: *Tinchlik* (ko'cha), *Yoshlik*, *Do'stlik* (ko'cha, mahalla), *Navro'z* (shaharcha, mahalla, ko'cha, tikuvchilik sexi) kabi. 2. Yasama yoki qo'shma tuzilmali antroponimik urbanonegizlar: Sapo ota (do'kon, to'yxona), Oxunbobo (qabrison) va b. 2) formantli nomlar. Urbanoformantlar urbanonim tarkibida uchraydigan, ammo atoqli otni hosil qilishga xizmat qilmovchi, aslida urbanonegiz tarkibiga mansub qoldiq morfemalardir. Bunday elementlar onomastikada formant, urbanonimlar tarkibidagilari esa *urbanoformant* deb yuritish maqsadga muvofiq. Ushbu muammoning eng murakkab tomonlaridan biri formantlarni urbanonim hosil qiluvchi funksional morfemalardan farqlay olishdir. Chunonchi, *Do'stlik*

urbanonimi tarkibidagi *-lik* formantdir. Xuddi shuningdek, *Ma'rifatchi* urbanonimi tarkibidagi *-chi* qo'shimchasi urbanoforantdir.

Formant tushunchasi o'zbek toponimiyasiga rus nomshunosligidan kirib keldi. A.V.Superanskayaning fikricha, formantli toponim nol ko'rsatkichli negizga tengdir¹. Formant va topoformant tushunchalarini o'zbek toponimiyasida dastlab Z.Do'simov keng qo'lladi va Xorazm toponimiyasida formantli urbanonimlarning ko'rinishlarini tahlil qildi. A.Otajonova etnotoponimlar tarkibida uchraydigan topoformantlarning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Umuman, etnotoponimlar tarkibidagi barcha lisoniy elementlarni ham toponim yasovchi unsur sifatida baholab bo'lmaydi. Chunki yuqorida qayd qilib o'tganimizdek, ularning tarkibidagi qo'shimchalar urbanonimga aylanmasdan oldin mavjud bo'ladi". Samarqand viloyati etnotoponimlari tarkibida uchraydigan topoformantlarni A. Turobov ikkiga: 1) o'zbekcha formantli etnotoponimlar; 2) o'zlashma formantli etnotoponimlarga ajratib tahlil qilgan. Shuni ta'kidlash o'rinliki, tahlillar Urganch shahri urbanonimiyasi uchun o'zlashma formantli urbanonimlar unchalik xarakterli emasligini ko'rsatdi. Etnotoponimlarni o'rganishga bag'ishlangan ishlarda urbanonim va etnonimlar birgalikda tahlil qilinadi. Shu sababli urbanonim tarkibida formant, ammo etnonim tarkibida so'z yasovchi bo'lgan qo'shimchalarning ma'no va etimologiyasi haqida fikrlar bildirilgan. Holbuki bunday ma'lumotlar formant holatidagi qo'shimchalar va ushbu qo'shimchali urbanonimlar uchun ahamiyatsizdir. Shu sababli biz quyida bunday nomlar tarkibidagi formantlarni keltirib o'tish bilangina cheklanamiz.

-lik formanti. Ushbu formant bilan yasalgan ba'zi nomlar tarkibida uchraydi: Mustaqillik, Tinchlik va b.

-chi formanti. So'z yasovchi *-chi* morfemasi o'zbek tilidagi eng faol qo'shimchalardan biridir. Mana shu qo'shimcha yordamida yasalgan ba'zi so'zlar (oddiy so'z va etnonimlar) onomastik konversiya usulida urbanonimiyaga o'tgan: *Ayronchi, Temirchi, Pichoqchi, Ma'rifatchi* kabi. Ushbu urbanonimlar negiz bo'lmish so'zdan anglashilgan belgi, xususiyat yoki biror predmet, hodisaga egalik to'g'risidagi xabarni anglatadi.

-lar formanti. Ushbu formant o'zbek tilida ko'plik kategoriyasini ifodalash bilan birga ba'zi hollarda urbanonimlarni yasaydi va bu jihati bilan so'z yasovchi morfemalarga yaqinlashadi. Mana shunday so'zlar konversiya yo'li bilan urbanonim vazifasiga o'tgach, uning tarkibidagi *-lar* qo'shimchasi topoformantga aylanadi. Urganch shahri urbanonimiyasida ham ushbu hodisa mavjud va u: *Suvchilar, Gulchilar, Quruvchilar* (mahallalar nomi) kabi birliklarda ifodalangan.

3) Urbanonimik aniqlagichli nomlar. Urbanonimlarning grammatik tuzilishi tahlil qilinarkan ekan, qo'shma nomlar tarkibida ba'zi bir leksemalarning

qayta-qayta takrorlanib turishiga duch kelamiz. Bular mahalla, ko‘cha, yo‘l kabi so‘zlardir. Bunday leksemalar tabiiy-geografik obyektlarning nomlari bo‘lgani uchun ularni tadqiqotchilar geografiya fani nuqtayi nazaridan baholashib, *xalq geografik terminlari*, *mahalliy geografik terminlar*, *geografik nomenklatura*, suv obyektlari tarkibida uchraydiganlarini *gidronimik terminlar* deb atashgan. Qayd qilingan leksemalar (terminlar) urbanonimlar tarkibida takrorlanib kelishi va qo‘shma nomlarni yasashda ishtirok etishidan tashqari yana bir xususiyatga egadir. Bu ularning o‘zi atayotgan tabiiy-geografik obyektga aniqlik kiritishi, uning qanday obyekt ekani haqida xabar berishidir. Bu xususiyat, ayniqsa, bu tip leksemalarning bir xil negizga qo‘shilib kelganida aniq seziladi. Masalan, *ko‘hna* negiziga qo‘shilish hollarini olib ko‘raylik: *Ko‘hna Urganch* va b. Ushbu urbanonimning qanday obyektning nomi ekani ikkinchi qismda kelgan leksemalar yordamida ravshanlashgan. Mana shu keyingi xususiyatni hisobga olib, bunday leksemalarni taniqli tilshunos B.A.Serebrennikov “toponimik indikatorlar” deb nomlaydi.

B.A.Serebrennikov qo‘llagan “toponimik indikatorlar” terminini ijobiy baholash mumkin. Chunki termin nomlanayotgan hodisaning mohiyatini, ma’nosini ifoda qiladi: lotincha: *indico*, *indicare*, *indicator* so‘zi “ko‘rsataman”, “namoyish qilaman”, “ishora qilaman”, “ko‘rsatkich” ma’nolarini anglatadi.

Urbanonimlar tarkibida ishtirok etayotgan apellyativlarni ilmiy termin bilan tenglashtirish, bizningcha, o‘rinsiz. Chunki ular bu o‘rinda urbanonimlarni yasayotgan til material, lisoniy material sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli ham *toponimik indikator* yoki mos ravishda *urbanonimik indikator* termini ushbu leksemalarning funksional mohiyatini to‘g‘ri ifodalaydi.

Toponimik indikator termini va tushunchasini o‘zbek toponimikasiga Z.Do‘simov olib kirdi va Xorazm toponimiyasi materiallariga tatbiq qildi hamda ularning quyidagi tasnifini berdi: 1) obyekt bildiruvchi indikatorlar: qal’a, ovul, tov, tobe, ato‘z, bozor, tog‘ay (to‘qay), bog‘ va b.; 2) belgi, xususiyat bildiruvchi indikatorlar: bo‘z, avat (obod); 3) tomon bildiruvchi indikatorlar: orqa; 4) yuksaklik bildiruvchi indikatorlar: baland, pas (past), yoqori (yuqori), tomen (tuman), past; 5) rang-sifat bildiruvchi indikatorlar: kok (ko‘k), ala (ola), qara (qora); 6) son bildiruvchi indikatorlar: uch, besh, qirq, to‘qson, ming, uch kabi. Keltirilgan tasnifda indikator tushunchasining doirasi nihoyatda keng tushunilgan va unda indikatorlik vazifasini o‘tamaydigan vositalar ham kirib ketgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati



1. Авлакулов Я.И. Ўзбек ономастикаси бирликлари кўламига доир //“Чет тилларни нофилологик олий ўқув юртларида ўқитиш масалалари ва муаммолари” мавзусидаги илмий-амалий анжуман. – Бухоро, 2007. – Б.13-16.
2. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент: Университет, 2007. – 710 б.
3. Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 64 б.

